

O‘QISH VA ONA TILI DARSLIKLARIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Xakimova Shaxnoza Baxtiyorovna

(Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi magistranti)

E-mail: shaxnozax800@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18943990>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘qish va ona tili darsliklari o‘quvchi tafakkurini shakllantiruvchi muhim didaktik vosita sifatida talqin etiladi. Darslikdagi matn, savol va topshiriqlar tizimi o‘quvchini oddiy o‘qishdan chuqur anglashga, anglashdan tahlilga, tahlildan esa mustaqil va tanqidiy fikr yuritishga olib boruvchi bosqichma-bosqich jarayon sifatida ilmiy asosda yoritiladi. Rasm asosida hikoya tuzish, so‘zlardan gap va maqol yaratish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi mashqlar tafakkur faolligini oshiruvchi mexanizm sifatida baholanadi. Integratsiyalashgan darsliklar tajribasi asosida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali metodik yo‘llari taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish savodxonligi, ona tili darsliklari, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, nutqiy kompetensiya, matn tahlili, rasm asosida hikoya tuzish, ijodiy topshiriqlar, integratsiyalashgan darsliklar, pedagogik mexanizmlar.

**Аннотация:** В данной статье учебники чтения и родного языка в начальных классах рассматриваются как важное дидактическое средство формирования мышления учащихся. Система текстов, вопросов и заданий в учебниках научно обосновывается как поэтапный процесс, переводящий ученика от простого чтения к глубокому пониманию, от понимания к анализу, а от анализа — к самостоятельному и критическому мышлению. Такие упражнения, как составление рассказа по иллюстрации, создание предложений и пословиц из слов, анализ проблемных ситуаций, оцениваются как механизмы активизации мыслительной деятельности. На основе опыта интегрированных учебников предлагаются эффективные методические пути развития самостоятельного мышления.

**Ключевые слова:** начальное образование, читательская грамотность, учебники родного языка, самостоятельное мышление, критическое мышление, речевая компетенция, анализ текста, составление рассказа по иллюстрации, творческие задания, интегрированные учебники, педагогические механизмы.

**Abstract:** This article interprets reading and mother tongue textbooks in primary education as important didactic tools for shaping students' thinking. The system of texts, questions, and tasks in the textbooks is scientifically described as a step-by-step process that leads students from simple reading to deep comprehension, from comprehension to analysis, and from analysis to independent and critical thinking. Exercises such as picture-based storytelling, creating sentences and proverbs from given words, and analyzing problem situations are evaluated as mechanisms for enhancing cognitive activity. Based on the experience of integrated textbooks, effective methodological approaches for developing independent thinking are proposed.

**Keywords:** primary education, reading literacy, mother tongue textbooks, independent thinking, critical thinking, speech competence, text analysis, picture-based storytelling, creative tasks, integrated textbooks, pedagogical mechanisms.

**Kirish:** Zamonaviy ta‘lim tizimida boshlang‘ich ta‘lim o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, o‘qish va ona tili fanlari o‘quvchilarda nafaqat savodxonlik, balki tafakkur mustaqilligi, mantiqiy fikrlash va nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda ta‘lim jarayoni reproduktiv yondashuvdan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tayotgan bir sharoitda, darsliklarning mazmuni va metodik tuzilishi o‘quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Mustaqil fikrlash — bu o‘quvchining matni anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z munosabatini asoslab bera olish qobiliyatidir. Boshlang‘ich yosh davrida mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish, avvalo, o‘qish va ona tili darsliklarida berilgan matnlar, savol-topshiriqlar hamda ijodiy mashqlar tizimiga bog‘liq. Ayniqsa, rasm asosida hikoya tuzish, so‘zlardan gap va maqol yaratish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish kabi topshiriqlar o‘quvchini faol fikrlash jarayoniga jalb etadi.

So‘nggi yillarda integratsiyalashgan o‘qish va ona tili darsliklarining joriy etilishi ta‘lim mazmunini yangilashga xizmat qildi. Biroq mazkur darsliklarning mustaqil fikrlashni

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

rivojlantirishdagi imkoniyatlarini ilmiy tahlil qilish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shu bois, ushbu maqolada o‘qish va ona tili darsliklarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari pedagogik va metodik nuqtai nazardan o‘rganiladi hamda samarali yondashuvlar asoslab beriladi.

**Mustaqil fikrlash tushunchasining nazariy asoslari.** Mustaqil fikrlash — bu tayyor fikrni takrorlash emas, balki fikr ustida fikr yurita olish qobiliyatidir. U eshitilganni qaytarish emas, anglanganni tahlil qilish; o‘qilganni yodlash emas, o‘qilgandan xulosa chiqarish jarayonidir. Pedagogika va psixologiya fanlarida mustaqil fikrlash shaxsning ongli, faol va izlanishga moyil tafakkur ko‘rinishi sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda o‘quvchi bilimni qabul qiluvchi emas, uni qayta ishlovchi va mazmunini boyituvchi subyektga aylanadi.

Psixologik jihatdan mustaqil fikrlash analiz va sintez, taqqoslash va umumlashtirish, savol qo‘yish va javob topish kabi tafakkur operatsiyalari uyg‘unligida shakllanadi. Vygotskiy ta‘kidlaganidek, o‘quvchi rivojlanish zonasi doirasida yo‘naltirilgan ta‘lim orqali yuqori bosqichga ko‘tariladi; Piaget nazariyasiga ko‘ra esa bola konkret tasavvurlardan mantiqiy xulosalarga tomon siljiydi. Demak, mustaqil fikr birdan paydo bo‘lmaydi — u bosqichma-bosqich, savoldan izlanishga, izlanishdan kashfiyotga olib boruvchi yo‘l orqali shakllanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan mustaqil fikrlash kompetensiyaviy yondashuvning yuragi hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta‘lim o‘quvchidan “nima biladi?” degan savoldan ko‘ra, “qanday fikrlaydi?” degan savolga javob izlaydi. Mustaqil fikrlash jarayonida o‘quvchi matnни o‘qiydi, mazmunni anglaydi, anglaganini tahlil qiladi va tahlildan xulosa chiqaradi. Shunday qilib, o‘qish — anglashga, anglash — tafakkurga, tafakkur esa mustaqil qarorga aylanadi.

**O‘qish darsliklarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish mexanizmlari.** O‘qish darsligi — bu shunchaki matnlar to‘plami emas, balki fikrni uyg‘otuvchi, tafakkurni harakatga keltiruvchi didaktik maydondir. Undagi har bir matn — savolga sabab, har bir savol — izlanishga turtki, har bir topshiriq esa mustaqil xulosaga eltuvchi mexanizm sifatida xizmat qilishi lozim. Zamonaviy pedagogik yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni anglovchi, tahlil qiluvchi va qayta yaratuvchi subyekt sifatida shakllanishi zarur. Shu jarayonda o‘qish darsliklari mustaqil fikrlashni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biriga aylanadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, mustaqil fikrlash tafakkur operatsiyalari — analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish jarayonlari asosida shakllanadi. O‘qish darsliklarida matn ustida bosqichma-bosqich ishlash mexanizmi aynan shu operatsiyalarni faollashtirishga xizmat qiladi. “Nima haqida o‘qiding?” savolidan “Nega shunday deb o‘ylaysan?” savoligacha bo‘lgan yo‘l o‘quvchini oddiy qabul qilishdan chuqur anglashga, anglashdan esa mantiqiy tahlilga olib boradi. Fikrni takrorlashdan fikrni asoslashgacha bo‘lgan ushbu bosqich o‘quvchi tafakkurining o‘sish dinamikasini belgilaydi.

Tahliliy va baholovchi savollar tizimi mustaqil fikrlashning navbatdagi mexanizmi hisoblanadi. Bunday savollar o‘quvchidan voqealarni baholash, qahramon harakatlariga munosabat bildirish va dalil keltirishni talab qiladi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash elementlarini shakllantiradi. Tanqidiy fikr esa ma‘lumotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish va baholash qobiliyatidir.

Rasm asosida hikoya tuzish topshiriqlari esa ko‘rgazmali tafakkurdan mantiqiy tafakkurga o‘tish ko‘prigi vazifasini bajaradi. Vizual obraz tafakkurni harakatga keltiradi, tafakkur esa obrazni mazmun bilan to‘ldiradi. Rasmni kuzatish, tafsilotlarni aniqlash va ular asosida hikoya yaratish jarayoni o‘quvchini ijodiy va mustaqil fikr yuritishga undaydi. Bu yerda tasvir fikrga, fikr esa matnga aylanadi.

Muammoli vaziyatli topshiriqlar ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biridir. Muammo qo‘yilgan joyda tafakkur faollashadi; savol tug‘ilgan joyda esa javob izlash boshlanadi. O‘quvchi muammoni tahlil qiladi, variantlarni taqqoslaydi va eng maqbul yechimni tanlaydi. Shu tariqa u tayyor javobni emas, o‘z xulosasini yaratadi.

**Ona tili darsliklarida mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalari.** Ona tili darsligi — bu faqat grammatik qoidalar majmui emas, balki fikrni shakllantirish, so‘zni ongga, ongni esa nutqqa aylantirish vositasidir. Agar o‘qish darsligi fikrni uyg‘otsa, ona tili darsligi uni ifodalashni o‘rgatadi. Shu bois, ona tili darsliklari mustaqil fikrlashni shakllantirishda alohida metodik ahamiyat kasb etadi.

Birinchi muhim vosita — **so‘z ustida ishlash tizimidir.** Ma‘nodosh, zid ma‘noli, ko‘p ma‘noli so‘zlarni aniqlash, ularni taqqoslash va o‘rinli qo‘llash topshiriqlari o‘quvchini mantiqiy bog‘lanishlarni anglashga undaydi. So‘z ma‘nosini farqlash — bu fikrni aniqlashtirish; fikrni aniqlashtirish esa mustaqil xulosaga yaqinlashish demakdir.

Ikkinchi vosita — **so‘zlardan gap va maqol tuzish mashqlaridir.** Aralash berilgan so‘zlarni mantiqiy tartibga solish jarayoni o‘quvchidan tahlil va sintezni talab qiladi. So‘z — birlik, gap — tizim, maqol esa umumlashtirilgan hikmatdir. O‘quvchi so‘zdan gapga, gapdan umumiy xulosaga

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

o‘tish orqali tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantiradi. Bu jarayonda u tayyor fikrni takrorlamaydi, balki fikrni o‘zi quradi

Uchinchi vosita — **grammatik hodisalarni anglash orqali tafakkurni rivojlantirishdir**. Qoidani yodlash emas, balki uni misol orqali tushunish va qo‘llash mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Masalan, gap bo‘laklarini aniqlash yoki so‘z turkumlarini farqlash topshiriqlari o‘quvchidan mantiqiy tahlilni talab qiladi. Til tizimi ustida ishlash orqali tafakkur tizimlashadi.

To‘rtinchi vosita — **ijodiy yozma topshiriqlardir**. Hikoya tuzish, berilgan mavzuga munosabat bildirish, matnni davom ettirish kabi mashqlar o‘quvchini reproduktiv faoliyatdan produktiv faoliyatga olib o‘tadi. Yozma nutq jarayonida fikr shakllanadi, aniqlanadi va mustahkamlanadi. Yozilgan har bir jumla — o‘ylangan fikrning natijasidir.

Beshinchi vosita — **qiyoslash va umumlashtirish mashqlaridir**. Ikki matn yoki ikki hodisani taqqoslash topshiriqlari o‘quvchini tahliliy fikrlashga undaydi. Qiyoslash — tafakkur tarozisi, umumlashtirish esa tafakkur xulosasidir. Bu jarayonda o‘quvchi axborotni tartibga soladi va o‘z nuqtai nazarini shakllantiradi.

Ilmiy jihatdan qaraganda, ona tili darsliklaridagi ushbu vositalar tafakkur operatsiyalarini — analiz, sintez, abstraksiyalash va umumlashtirishni — faollashtiradi. Til ustida ishlash aslida fikr ustida ishlashdir. Chunki til — tafakkur shakli, tafakkur esa til orqali namoyon bo‘ladi.

**Amaliy tajriba tahlili.** 2020–2023 yillar davomida bir sinfni 1-sinf dan 4-sinf gacha o‘qitish jarayonida o‘qish va ona tili darsliklaridagi o‘zgarishlar amaliy jihatdan kuzatildi va tahlil qilindi. Mazkur davrda har yili darsliklarning yangilanib borishi, fanlarning integratsiyalashuvi hamda metodik yondashuvlarning o‘zgarishi ta‘lim samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu tajriba darsliklarning mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi real imkoniyatlari va mavjud kamchiliklarini aniqlash imkonini berdi.

Avvalo, integratsiyalashgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” modeli fanlararo bog‘liqlikni kuchaytirdi. Matnni o‘qish jarayonida grammatik tushunchalarni o‘zlashtirish, so‘z ustida ishlash va mazmunni tahlil qilish bir butun tizimda olib borildi. Bu esa o‘quvchilarning tafakkurini parchalagan emas, balki yaxlit shakllantirishga xizmat qildi.

Yangi darsliklarning rasm va vizual materiallarga boyligi o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirdi. Rasm asosida hikoya tuzish, vaziyatni izohlash va munosabat bildirish topshiriqlari o‘quvchilarni faol fikrlashga undadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, bunday topshiriqlar ayniqsa nutqiy faolligi sust bo‘lgan o‘quvchilarni ham fikr bildirishga jalb qildi. Tasviriy vositalar orqali tafakkur faollashdi, tafakkur orqali esa mustaqil fikr shakllandi.

Shu bilan birga, darsliklardagi ijodiy va tahliliy savollar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirdi. “Nega?”, “Qanday xulosa chiqarish mumkin?”, “Siz qanday fikrdasiz?” kabi savollar o‘quvchini tayyor javobni izlashdan ko‘ra, o‘z qarashini shakllantirishga undadi.

Biroq amaliy tajriba ayrim muammolarni ham ko‘rsatdi. Qoidalar va nazariy tushunchalarning nisbatan kam berilishi savod chiqarish jarayonida qiyinchilik tug‘dirdi. Ayrim mavzularning bir-birini to‘ldirmasligi bilimning izchil shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Har yili darsliklarning yangilanishi esa o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun moslashuv jarayonini murakkablashtirdi.

Shunga qaramay, darsliklarning zamonaviy hayot bilan uyg‘unligi, fakt va yangiliklarga boyligi o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi. Dars jarayonida o‘quvchilar savol qo‘yish, fikr bildirish va o‘z munosabatini asoslashga ko‘proq intila boshladilar. Bu esa mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining ijobiy dinamikada shakllanayotganini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, 2020–2023 yillardagi amaliy tajriba yangi avlod o‘qish va ona tili darsliklari mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratishini tasdiqladi. Biroq nazariy asosni mustahkamlash, mavzular izchilligini ta‘minlash va differensial yondashuvni kuchaytirish orqali ularning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

**Xulosa:** O‘qish va ona tili darsliklari boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchi tafakkurini shakllantiruvchi asosiy didaktik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, darsliklardagi matnlar tizimi, tahliliy savollar, rasm asosida hikoya tuzish, so‘zlardan gap va maqol yaratish kabi mashqlar o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Fikrni o‘qishdan anglashga, anglashdan tahlilga, tahlildan esa asosli xulosaga olib boruvchi mexanizmlar samarali qo‘llanganda, ta‘lim jarayoni reproduktiv faoliyatdan produktiv tafakkur maydoniga aylanadi.

2020–2023 yillardagi amaliy tajriba integratsiyalashgan darsliklar modelining mustaqil fikrlashni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, vizual materiallar va ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qilgan. Biroq nazariy asosning

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

yetarlicha tizimlashtirilmaganligi va mavzular izchilligida kuzatilgan ayrim kamchiliklar takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, o‘qish va ona tili darsliklari mazmunan va metodik jihatdan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilishi zarur. Nazariya va amaliyot, ijodiylik va tizimlilik, savol va xulosa o‘rtasidagi uyg‘unlik ta‘minlangandagina boshlang‘ich ta‘lim bosqichida mustaqil fikrlash kompetensiyasi barqaror shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun*. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. *Boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standarti*. – Toshkent, 2021.
3. PIRLS 2021 Assessment Framework. – International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2021.
4. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Harvard University Press, 1978.
5. Piaget J. *The Psychology of the Child*. – New York: Basic Books, 1969.
6. G‘afforova T. *Ona tili o‘qitish metodikasi*. – Toshkent: Tafakkur, 2018.
7. OECD. *PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do*. – Paris: OECD Publishing, 2019.